SCIENCE CONNECTS PEOPLE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF

2026 / No. 1(2)

Contemporary Pedagogical and Philological Research

O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMINING TARIXI EVOLYUTSIYASI: AN’ANALAR VA ISLOHOTLAR

Turdaliyeva Iroda Parda qizi

Aliyeva Madina Iqboljon qizi

Kamolova Shahinabonu Jo’rabek qizi

SamDChTI Narpay xorijiy tillar fakulteti, 2-bosqich talabalari

Suyunov Boburjon Shokir o‘g‘li

SamDChTI Narpay xorijiy tillar fakulteti, Umumiy fanlar kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimiz hududidagi ta’lim tizimining rivojlanish bosqichlari hamda tarixiy shakllanishi yuzasida olib boriladi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidchilik harakati ta’sirida paydo bo‘lgan pedagogik islohotlar, SSR davridagi ta’lim siyosati va mustaqillik vaqtlarida amalga oshirilgan o‘zgarishlar, ta’lim va tarbiyaning qadimgi ildizlari, o‘rta asrlarda maktablarning rivojlanishiga alohida e’tibor qaratildi. Shu bilan birga, tarixiy va zamonaviy ta’lim tizimi bir biri bilan uzviyligi va milliy pedagogik merosining bugungi kundagi ahamiyati yoritiladi.Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston sharoitida inson kapitalini rivojlantirish, oliy ta’lim qamrovini kengaytirish va maktab ta’limini xalqaro standartlarga (STEM, PISA) moslashtirish borasidagi strategik islohotlarga alohida urg‘u berilgan. Bu maqola tarixiy-qiyosiy tahlil, zamonaviy tendensiyalar integratsiyasini va ilmiy adabiyotlarni o‘rganish metodlariga asoslanadi.

Kalit so‘zlar: ta’lim tarixi, jadidchilik, ta’lim islohotlari, zamonaviy ta’lim, Sharq Renessansi.

Ta’lim olish jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri bo‘lib, yoshlarning bilim, dunyoqarash va ma’naviyatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Har bir davlatning kelajagi yoshlarning qanday bilim olishi bilan bog‘liq. Shu tufayli ta’lim tizimining tarixiy rivojlanishini o‘rganish faqat o‘tmishni anglash emas, balki hozirgi kundagi islohotlarning mazmunini tushunish uchun hamdir. O‘zbekiston

azaldan ilm-fan va madaniyat markazlaridan biri hisoblangan. Turli tarixiy davrlarda bu zaminda maktab va madrasalarda bilim olingan, ta’lim va tafakkur rivojlangan va ko‘plab buyuk allomalar yetishib chiqqan. Ta’lim tizimining rivojlanishini o‘rganish hozirgi kunda islohotlarning mazmunini anglash va pedagogik merosdan samarali foydalanish imkonini beradi. Ushbu maqolaning maqsadi yurtimizdagi ta’lim tizimining tarixiy bosqichlarini tahlil qilish va zamonaviy islohotlar hamda an’analar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritishdan iborat.1. Ta’limning tarixiy ildizlari va ilm-fan taraqqiyoti. O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya an’analari uzoq tarixga ega. Qadimda yoshlarga bilim berish, kasb-hunar o‘rgatish va axloqlarini shakllantirishda oila, jamoa hamda ustoz-shogird munosabatlari orqali amalga oshirilgan. „Avesto” kabi tarixiy manbalarda rostgo‘ylik, mehnatsevarlik, ezgulik kabi qadriyatlarning ulug‘lanishi tarbiyaning muhimligini ko‘rsatadi. O‘rta asrlarda Buxoro, Samarqand va Xorazm kabi ilmiy markazlarda ta’lim maskanlari faoliyati rivojlandi. Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino kabi allomalar matematika, astronomiya, tabiiy fanlar va tibbiyot taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdilar. XIV–XV asrlarda Mirzo Ulug‘bekning ilmiy faoliyati Samarqandning yirik ilm-fan markazi sifatidagi mavqeini mustahkamladi.

2. Jadidchilik harakati va ta’lim islohotlari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati boshlandi. Jadidlar maktablarni yangilash, o‘qitish usullarini yaxshilash va dunyo fanlarini o‘rgatishni kengaytirishga hamda zamonaviy va ma’rifat bilimlarini kengaytirishga intildilar. Bular Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonov va Abdurauf Fitrat kabi ma’rifatparvarlar yangi usuldagi maktablarni rivojlantirishi, xalq savodxonligini yaxshilanishiga samarali darsliklar yaratishga katta hissa qo‘shganlar. Shuningdek, ular boshqa sohalarda ham ma’rifat tarqatdilar. Misol uchun matbuot, adabiyot va teatr orqali ma’rifatparvarlikka chorladilar. Jadidlarning asosiy maqsadi yoshlarni dunyoviy bilimlar bilan davr talablariga moslashtirish va qurollashtirish edi.

SCIENCE CONNECTS PEOPLE

Hozirgi kunda jadidlar merosi mustaqil fikrlash, ilmga intilish va ta’lim sifatini oshirish g‘oyalarining tarixiy ahamiyatini ko‘rsatdi.

3. Sovet davrida ta’lim tizimining rivojlanishi.

O‘zbekiston Sovet hokimiyat davrida markazlashgan ta’lim tizimi boshqaruv asosida qayta tashkil etildi. Natijada maktablar tarmog‘i kengaydi. Kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari rivojlandi, savodsizlikni kamaytirish jarayonlari olib rivojlandi. Bu esa aholining keng qatlamlari uchun ta’lim olish imkoniyatlarini yanada oshirib berdi. Biroq ta’lim mazmuni siyosiy va mafkuraviy talablar ostida shakllandi. Milliy tarix va madaniyatni yoritishda ba’zi cheklovlar paydo bo‘ldi. Shu tufayli bu davrni o‘rganishda ,erishilgan natijalar bilan birga ta’lim mazmuni va boshqaruvdagi muammolarni ham hisobga olish kerak. Ushbu tajriba ta’limda milliy qadriyatlar va mustaqil fikrlashni saqlash va foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhimligini ko‘rsatadi.

4. Mustaqillik va zamonaviy ta’lim islohotlari. 1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach turli sohalarda o‘zgarishlar bo‘ldi. Ayniqsa ta’lim yunalishida yoshlar uchun ko‘p imkoniyatlar ochildi .Ta’lim dasturlarini yangilash, milliy tarix va madaniyatni o‘rganish hamda yangi darsliklar kiritish va pedagogik metodlarini rivojlantirish muhim vazifalar deb qaraldi. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan O‘RQ-637-son "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonun ta’limning asosiy huquqlaridan biridir .Keyingi vaqtlarda maktabgacha ta’limni rivojlantirish, oliygohga kirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ta’lim sifatini yaxshilashga qaratilgan islohotlar yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunda ta’limning asosiy vazifalaridan biri yosh avlodni zamonaviy ta’lim ta’minlashdir. STEM yondashuvi matematika ,texnologiya, muhandislik hamda tabiiy fanlarni o‘zaro bog‘liq holda o‘qitishga asoslanadi . PISA xalqaro baholash dasturi yoshlarning o‘qish, tabiiy fanlar hamda matematika bo‘yichabilim va ko‘nikmalarini amaliy tarzda qo‘llash qobiliyatini baholaydi. Ta’lim sifatini yaxshilash uchun tajribani o‘rganish bilan birga kitobxonlikni rivojlantirish o‘qituvchilarning malakasini oshirish hamda mustaqil fikrlashni qo‘llab-quvvatlash darkor.

SCIENCE CONNECTS PEOPLE

O‘zbekiston ta’lim tiziming rivojlanish bosqichlari

Ko‘rsatkichlar	2016-yilgacha	Hozirgi davr
Oliy ta’lim qamrovi	Taxminan 9-10%	40% dan yuqori
OTMlar umumiy soni	77ta	210 tadan ortiq
Maktabgacha ta’lim qamrovi	27%	74% dan yuqori

Jadvaldan ko‘rinadiki, ta’lim tizimining shakllari va mazmuni tarixiy sharoitlar ta’sirida o‘zgarib borgan. Hozirgi davrda milliy pedagogik merosni saqlash bilan birga, zamonaviy bilimlar va xalqaro tajribani o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston ta’lim tizimining tarixiy rivojlanishi shuni ko‘rsatadiki har bir davr jamiyatning ilmga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqib ,ta’lim mazmuni va shakllarining o‘zgarishiga ta’sir qilgan. Qadimgi ta’lim an’analari Sharq allomalarining ilmiy merosi hamda jadid ma’rifatparvarlarining islohotlari bugungi kunda ta’lim rivojlanishida muhim tajriba hisoblanadi. Bugungi kunda ta’limni rivojlantirishda merosni asrash bilan birga zamonaviy pedagogik metodlar va tajribadan samarali foydalanish muhim .Ta’lim sifatini oshirish yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini va mustaqil fikrlashini rivojlantirish va bilimlarini amaliy tarzda qo‘llash orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Shunday qilib , milliy ta’lim an’analarini zamonaviy islohotlar bilan uyg‘unlashtirish yurtimizning ijtimoiy ,ilmiy va ma’naviy tarqqiyotiga xizmat qiladi. Yoshlarga sifatli ta’lim berish hamda ularda ta’limga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish davlat kelajagini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son. – https://lex.uz/acts/-5013007.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida. – https://lex.uz/uz/docs/-6600413.

3. Hoshimov K., Nishonova S. va boshqalar. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

4. Hoshimov K., Nishonova S. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.

5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi.

6. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1997.

7. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma’naviyat.

8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

9. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000.

10. O‘zbekistonning yangi tarixi. 3-kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000.

11. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. – Paris: UNESCO, 2016.

12. OECD. PISA 2022 Results. Volume I: The State of Learning and Equity in Education. – Paris: OECD Publishing, 2023.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida.

15. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? – Paris: UNESCO, 2023.